

PAPER

KIRISH SO‘Z, KIRISH BIRIKMA VA KIRITMA QURILMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI (BADIY MATNLAR MISOLIDA)

Matkarimova Gulnoza Ergash qizi^{1,*}

¹JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi

*matkarimovagulnoza454@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada kirish so‘z, kirish birikmalar, kirish gap va kiritma gaplarning semantik xususiyatlari badiiy asarlardan olingan parchalar misolida tahlil qilindi.

Key words: : kiritmalar, kirish so‘z; kirish so‘zlarning tiplari; kirish birikma; kiritmali qurilmalar; kirish gap; kiritmali gaplar.

Kirish

So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaksis birliklarga kirishlar deyiladi. Kirishlar so‘z birikma holatida bo‘ladi. [8:466]

Kirish so‘zlar va kirish birikmalar gapning biror bo‘lagi bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi. [4:97] Kiritmalar gapdagi boshqa bo‘laklardan yozuvda vergul, tire, ba‘zan qavslar bilan, talaffuzda esa, kichik to‘xtamlar bilan ajratiladi. So‘zlovchining o‘zi ifodalagan fikrga munosabat turlari va har qaysi ma‘no munosabatini ifodalovchi kirish so‘zlar quyidagilar:

1. **Ishonch munosabati:** *albatta, shaksiz, shubhasiz.* “*Albatta, Kimsan akasi bo‘lganida-ku, to‘yga o‘zi bosh bo‘lardi-ya.*” [12:131]

2. **Gumon munosabati:** *balki, ehtimol, chamasi.* “*Balki, unday kuch aslida yo‘qdir o‘zi...*” [1:152]

3. **Tasdiq munosabati:** *to‘g‘ri, darhaqiqat, haqiqatan.* “*Darhaqiqat, rejada mahallani yashillashtirish, bog‘ va xiyobonlar barpo etilishiga alohida e‘tibor berilgan.*” (“Jizzax haqiqati”)

4. **Achinish munosabati:** *afsuski, attang.* “*Attang, attang, yetmish so‘mli mol edi-ya.*” [9:322]

5. **Fikrga yakun yasash munosabati:** *xullas, demak.* “*Ikromjon u desa, bu dedi, xullas, Jannat xola bormaydigan bo‘ldi.*” [9:257]

6. **Fikrning kimga qarashli ekanligi:** *menimcha, uning ta‘kidlashicha, fikri o‘jizimcha, aytishlaricha.* “*Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf‘a yo‘rgaklagan kampir hazilkashligi va sho‘xligi bilan xotin-xalaj o‘rtasida dong*

chiqargan Hamro enaymish.” [1:10]

7. **Fikrning tartibi:** *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor.* “*Orqasidan qiling‘an ta‘qibni payqashi esa, avvalo, bu uning bir mulohazasi bo‘lg‘an edi...*” [3:266]

Kiritmalar sodda va murakkab bo‘lib, sodda kiritmalar so‘zlar va so‘z gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi.

Sodda kiritmalarga misollar: “*Albatta, Solih maxdum og‘irroq kasbni uhda qilolmas, imoratka bo‘lsa, soqoli chiqmag‘anliqdan yarolmas edi.*” [2:12] “*Ehtimol, kecha onam ham shu oymomoga termilib, meni o‘ylab yotgandir.*” [12:13]

Murakkab kiritmaga misollar: “*Shunday qilib, Abduvalilarning uyidan o‘tib guzarga chiqasiz.*” [12:15]

Kirishlarning gap tarkibida qo‘llanilish shakllari. Kirishlar gap tarkibida so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklida qo‘llaniladi.

Kirish so‘zlar. Bular bir so‘zdan iborat bo‘lib, ma‘lum so‘z turkumlari bilan bog‘lanadilar, shunga ko‘ra kirish so‘zlar quyidagi tiplarga bo‘linadi:

1. **Ot tipidagi kirish so‘zlar:** *chamasi, taajjub, modomiki, oxiri, nazarimda, baxtimizga* kabilar. Masalan, “*Modomiki, masala o‘zi bu qadar ravshan va aybdorning o‘zi o‘z og‘zi bilan iqrar qilib turibdi, mayli, muzokara ochib o‘tirmasak ham bo‘ladi.*” [1:290]

2. **Olmosh tipidagi kirish so‘zlar:** *menimcha, seningcha, uningcha, bizningcha* kabilar. Masalan, “*Menimcha, bu ishda Xo‘jaqulovning ham qo‘li bor.*” [12:58]

3. **Sifat tipidagi kirish so‘zlar:** *so‘zsiz, to‘g‘ri, durust, qisqasi,*

tabiiy kabi. "To'g'ri, cho'lda tayyor uy yo'q." [9:220]

4. **Son tipidagi kirish so'zlar: birinchidan, ikkinchidan kabi.** "Birinchidan, Zunnunova nega kelibdi?" ("Yoshlik")

5. **Ravish tipidagi kirish so'zlar: dastlab, oxir, nihoyat, umuman, asosan, aksincha kabilar.** "Nihoyat, "Tuya" amaki "mu-jdika"chalishdan charchadi." [12:114]

6. **Fe'l tipidagi kirish so'zlar: kechirasiz, deyman, an-glashiladiki kabilar.**[11:96] "– Yaxshi qiz, kechirasiz, otingizni bil-mayman, siz xotirjam bo'ling, biron joyi bir nima bo'lsa, o'zim tuzatib beraverman." [9:412]

Kirish birikmalar. Bular birikma holida bo'lib, ularning tuzil-ishi quyidagicha:

1. **Qaratqichli kirish birikmalar: uning fikricha, buning ustiga, sening nazingda kabilar.** "Buning ustiga chang bosgan yaproqlar yuz-ko'zimga uriladi." [12:32]

2. **Sifatlovchili kirish birikmalar: bir tomondan, shu jum-ladan kabilar.** "Bu daf'a Miryoqub, bir tomondan, mudhish sudning so'roqlarini eslab, Poshshoxonga sovuq muomala qildi." [1:189]

3. **To'ldiruvchili kirish birikmalar: menga desa, qisqasini ayt-sam, to'g'risini aytganda kabilar.** "Qisqasini aytсам, har bir insonning jamiyatda tutgan o'rni birinchi navbatda kelajak avlodga ko'rsatgan namuna va ibrati bilan o'lchanadi desa xato bo'lmaydi." (Samdu.uz)

4. **Holli kirish birikmalar: qisqacha aytganda, boshqacha ayt-ganda, ochiq gapirganda kabilar.** "Taqdirdan qochib bo'lmaydi – boshqacha aytganda, o'z harakatingning muqarrar oqbatlaridan qutul-ish imkonsiz. (Fridrix Angels)"(Afarizmlar.uz)

5. **Aniqllovchi va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning so'ziga qaraganda, sening gapinga qaraganda kabilar.** "Uning so'ziga qara-ganda, uzumning har boshi to'rvadek va g'ujumlari tutning donasidek zich bo'lishi kerak." (Izoh.uz)

6. **Aniqllovchi va holli kirish birikmalar: uning ochiq aytishicha, uning ochiq gapirishicha kabi.**

7. **Aniqllovchi, hol va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning ochiq gapirishiga qaraganda kabi.**

Nutqda kirish so'z va kirish birikmalargina emas, kirish gap va kiritma gaplar ham ishlatiladi. Kirish va kiritma gaplar kirish so'z va kirish birikmalar singari asosiy gapda ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildiradi. Bular kirish so'z va kirish birikmalardan tugal sintaktik konstruktsiya ekanliklari bilan farq qiladi.

Kirish va kiritma gaplar. Kirish gaplar mustaqil gap bo'lib, butun gapga qo'shimcha izoh yoki muallif munosabatini bildiradi. Kirish gaplar mustaqil gap shaklida bo'ladi. Masalan, "Xonim, men sizga aytсам, erining oldida noz qilgan bo'ldi." [1:169]

Kiritma gaplar asosiy gap bilan birga qo'llaniladi va mazmunan anglatgan fikrga obyektiv xarakterdagi qo'shimcha ma'lumot kiri-tadi. Kiritmalar faktlarni yo'l- yo'lakay izohlaydi va shu xususiyati bilan kirish gaplardan farq qiladi. Kiritma gaplar yana shu bilan xarakterlanadiki, ular gapda asosiy fikrga qo'shimcha fikr qo'shish ehtiyoji orqasida kutilmaganda to'satdan kiritiladi va bayon qili-nayotgan fikrni to'laroq tushunishga yordam beradi. [4:99-100] Kiritma gaplar murakkab kiritmalar deb ham ataladi va ogzaki nutqda bir oz toxtam bilan , yozma nutqda esa qavs bilan ajratilib , asosiy gapning ortasida keladi.

Masalan, "Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga o'rgandim) piyoz archsa, "soqolini" tashlab yubormaydi." [12:51] Ushbu keltir-ilgan gapdagi qavs ichida berilgan qora xotinni shunaqa deyishga o'rgandim gapi asosiy gapga qo'shimcha ma'lumot berish va asosiy gapni yo'l-yo'lakay izohlab ketish xususiyatini beradi. "Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun "aka" deb sizlayman) o'rik yesa danagini tashlamaydi." [12:51] "Azizxon munkayganicha borib tuproq uyumi ustiga ajib chaqqonlik bilan (jindek maqtangan-lik aralash) silkinib qanorni irg'itdi." [9:78] "– Xudoning qanday hikmatlari bordirkim, shu kecha-kunduzlarda bizning tevarag-imizda qonli voqi'alar ko'rila boshladi: bu kun nikoh deganimizda Komilbekni hammomda o'ldirib ketdilar (Kumushbibi yuzida bir yengillik ko'rildi), kecha uyimiz orqasida bir emas, uch kishi o'ldirildilar." [3:280] "Bu kun o'n yetti yoshliq Ra'no kabi qizg'a

sakiz yoshliq Mahmud (Ra'no bilan Mahmud orasida ikki bola nobud bo'lg'an), olti yoshliq Mansur va beshikdagi Mas'udlarga ona bo'ldi." [2:18] "Shunday kezlarda (bunaqa kezlarda ikki-uch bor bo'lgan) Azizxon ketishga shoshilmaydi." [9:82] "Mohirabonudan ikki o'g'il va ikki qiz dunyoga kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshligida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchinchi Karimbek va to'rtinchi bizning Zaynab edi." [3:384] "Ikki yuz tildan ko'b oqchasi (bu oqchalarni husuli to'g'risida keyin so'z bo'lur) va savodlik bo'g'an bolalar ziyofatidan kiygan ikki sandiqcha sarposi bor edi." [2:19]

"Sotib olingan o'riklarni egalari qoqib yemayotganmikan, deb mahallani mahsichan aylanib devor nahlalaridan qarab yuradi (kalish kiyib yursa, shaloplatib bildirib qo'yishi mumkin)." [9:306] "Kezi kelganda maxdumning yozlik kiyimlarini bir sidra aytib ke-taylik : yo'lluq qizil qalami bo'zdan yaxtak, oq bo'zdan jihak yoqali keng ko'ylak (chunki tor bo'lsa yirtiladir) va lozim (ya'ni ishton) hamda sarpoychan kiyishka yengilcha sag'ri kafsh ammo salla qishin , yozin bitta." [2:15]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kiritmalar gap tarkibida sozlovchining ifo-dalanayotgan asosiy fikrga munosabatini – gumon, achinish, is-honch, tasdiq va hokazolarni ifodalab, ular soz, soz birikma, ken-gaygan birikma va gaplar holida boladi. Buni badiiy asarlardan olin-gan parchalar misolida ham korishimiz mumkin. Ijodkor voqeani, jarayonni yoki qahramonning fikrini tolaroq izohlab, tushuntirish maqsadida kiritmalardan unumli foydalanadi. Kirish soz va kirish birikmalar asosiy gap tarkibidagi sozlar bilan hech qanday sintak-tik aloqaga kirishmaydi, gapda alohida tarzda ajralib turadi, vergul, tire bilan ajratiladi. Kiritma gaplar esa asosiy gap tarkibida qavs ichida beriladi, asosiy gapning mazmunini tolaroq izohlashga xiz-mat qiladi. Kiritma gaplar toliq (bosh va ikkinchi darajali bolak-lariga ega bolgan) gap, yani tugal konstruktsiya bolib, asosiy gap-ning sintaktik qurilishiga tasir qilmaydi, shunchaki, asosiy gapni izohlab, toldirib, qoshimcha fikr va malumot berib ketish maqsa-dida qollaniladi.

References

1. Abdulhamid Cho'lpon. Kecha va kunduz. Toshkent – Yangi nashr – 2019.
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent – 2024.
3. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Ilm – ziyo – zakovat.Toshkent – 2019
4. Abdurahmonov G', Sulaymonov A., Xoliyovrov X., Omon-turdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi – 1979.
5. Afarizmlar.uz sayti
6. Izoh.uz sayti. "g'ujum" so'zining izohidan.
7. "Jizzax haqiqati" gazetasidan. 29.01.2025
8. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – "OLM ZIYO" – 2015.
9. Said Ahmad. Ufq. Turon zamin nashriyoti. Toshkent – 2024.
10. Samdu.uz sayti. "Dunyodagi eng irodali , eng kuchli ayol menman..."
11. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand – 2001.
12. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. O'qituvchi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2018.
13. "Yoshlik" jurnalidan